

# Mahallalarning xaritalari yangilanmoqda

Dunyodagi har bir mamlakat o'z aholisi soni va uning yashash holati bo'yicha ishonchli ma'lumotga ega bo'lish maqsadida ro'yxatga olish ishlarini olib boradi. Mazkur jarayon har besh yoki o'n yilda amalga oshiriladi. Bu xalqaro amaliyotga doir tamoyil. O'zbekistonda esa aholini ro'yxatga olish ilk bor 1897-yilda amalga oshirilgan. Shundan so'ng 1926, 1939, 1959, 1970, 1980, 1989-yilda o'tkazilib, eng oxirgisida respublikamizda 19,7 million aholi yashayotgani qayd etilgan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 2015-yil 10-iyunda "2020-yilda aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olish borasidagi prinsiplar va tavsiyalar" rezolyutsiyasini qabul qildi. Unga ko'ra, BMTga a'zo davlatlar mazkur 10 yillik raundda kamida bir marta aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olishni o'tkazishi belgilab qo'yildi. O'zbekistonda ham aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ishlari boshlab yuborilgan. Bunga 2020-yil 16-martda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi qonuni huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.



## **Bu nima uchun kerak?**

Eng avvalo, aholining aniq soni, yoshi, jinsi, fuqaroligi, milliy tarkibi (barcha yashash joylari bo'yicha), oilaviy ahvoli, ma'lumoti, kasbi, uy-joy bilan ta'minlanganlik

darajasi, turmush sharoitlari, mehnat resurslari, bandligi va ishsizligi, daromad manbalari kabi jihatlar bo'yicha batafsil ma'lumot to'planadi. Mazkur ko'rsatkichlar orqali esa, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, respublika va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish, ayollar va bolalar salomatligini yaxshilash hamda oilalarga yordam ko'rsatish bo'yicha dasturlarni manzilli ishlab chiqish imkoniyatini kengaytiradi. Bundan tashqari, aholi migratsiyasi bo'yicha aniq ma'lumotlarni shakllantiradi. Shu bilan birga, uy-joylar infratuzilmasini yaxshilash, mehnat resurslaridan foydalanish va joylashtirish bo'yicha qisqa, o'rta va uzoq muddatli prognozlar, dasturlarni ishlab chiqishda bu ma'lumotlar nihoyatda qo'l keladi. Buning natijasida Milliy barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish ko'rsatkichlarini shakllantirish va monitoringini yuritish, xalqaro tashkilotlar hamda foydalanuvchilar tahlillari uchun keng qamrovli axborot manbai yuzaga keladi. Mamlakatimiz taraqqiyoti yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar inson qadrini ulug'lash, aholi daromadlarini oshirish va ularga munosib turmush sharoitlarini yaratishga qaratilgan. Lekin joriy hisob bo'yicha mavjud axborot aholi soni, yashash sharoiti, ma'lumoti, bandligi, yosh-jins tarkibi, millat tarkibi, hududlarda ularning joylashuvi va boshqa ijtimoiy-demografik o'ziga xosliklar to'g'risida aniq xulosa hamda tahlillar qilishga yetarlicha imkoniyat bermayapti. Shuning uchun Prezidentimizning tegishli farmoni va hukumat qarorlariga asosan, respublikamizda aholini ro'yxatga olishga puxta tayyorgarlik ko'rish yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Bu jarayonda hududlarning xaritalari yangilanadi, mahallalardagi noaniq ko'chalar nomlanadi, aholi yashayotgan turar va noturar joylar ro'yxati tuzilib, raqamlanmagan xonadonlar raqamlashtiriladi. Yanada aniqroq aytganda, turar va noturar joylarning soni, holati, foydalanilmay yotgan yoki muddatini o'tab bo'lgan binolarni belgilab olish bilan bir qatorda, tegishli hududlarda uy-joy, sanoat obyektlarini qurish va ta'mirlash masalalariga oydinlik

kiritish mumkin bo'ldi. Ana shu tadbirlar orqali respublikamizning yangi, mukammal kadastr xaritasi yaratiladi. Mahalla xaritalarining to'liq va to'g'ri bo'lishi aholini ro'yxatga olishni sifatli tashkil etish, sarflanadigan mablag'lardan samarali foydalanilishini ta'minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Oldinda qilinadigan ishlarimiz ko'p. Ularning o'z vaqtida amalga oshirilishi natijasida yurtimizning har bir manzili, hatto chekka va olis mahalla-yu ko'chalarigacha bo'lgan barcha ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan yagona axborot bazasiga ega bo'lamiz. Bu qimmatli ma'lumotlar mamlakatimizning keyingi demografik va ijtimoiy siyosatini belgilash bilan bir qatorda, respublika va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish prognozlari, dasturlarini tuzishda keng qo'llaniladi. Shuningdek, oilalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan, keyingi o'n yillikka mo'ljallangan ijtimoiy dasturlarni shakllantirish, shifoxonalar, bolalar bog'chalari, maktablar va uy-joy qurilishini rejalashtirishda keng foydalaniladi. Ro'yxatga olish natijalarining nafaqat bugungi kun, balki kelajak avlodlar uchun ham ahamiyati katta. Bugun biz qanday yashaganimiz va qanday imkoniyatlarga ega bo'lganimiz tarixga muhrlanib, avlodlarimiz uchun ma'naviy meros bo'lib qoladi.

---

**O'zDSMI o'qituvchi va talabalari Koreya media san'ati universitetida bepul malaka oshirish imkoniyatiga**

# ega bo'ldi

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti delegatsiyasi Koreya media san'ati universiteti faoliyati bilan tanishdi.

Uchrashuv davomida ikki oliygoh rahbarlari hamkorlik memorandumini imzoladi. Unga ko'ra, ta'lim muassalari o'rtasida qo'shma ta'lim dasturi ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Bunda talabalar ikki yil O'zDSMIda o'qib, qolgan ikki yilni Koreya media san'ati universitetida davom ettirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu bilan birga, kelgusi yilning bahorida institutimi o'qituvchilari va talabalari mazkur universitetida ikki hafta davomida bepul malaka oshirish kurslarida tahsil olish imkoniyatiga ega bo'ladi.





---

**0‘zDSMI rektori v.b. Eldor Shermanov Koreya media san‘ati universiteti faxriy**

# professori unvoni bilan taqdirlandi

Xabaringiz bor, shu kunlarda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti delegatsiyasi xizmat safari bilan Koreya Respublikasida bo'lib turibdi.


Bugun institutimiz rektori v.b. Eldor Shermanov Koreya media san'ati universitetining faxriy professori unvoni bilan taqdirlandi.


Mazkur unvon oliygohimiz rahbariyati, professor-o'qituvchilari va talabalarining Koreya madaniyati va san'ati, shuningdek, ikki mamlakatning do'stona aloqalarini aks ettirgan tadbirlardagi faol ishtirokiga minnatdorchilik ramzi sifatida taqdim etildi.

Shu bilan birga, institut delegatsiyasi tomonidan Media san'ati universiteti vakillariga o'zbek to'ni va milliy noz-ne'matlar tuhfa qilindi.

Qayd etish joiz, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Koreya ta'lim markazi bilan mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Oliygoimizda Koreya madaniyat markazi va koreys tili kurslari yo'lga qo'yilgan.

O'zDSMI rahbariyati Koreya Respublikasiga tashrif davomida ko'plab hamkorlik shartnomalari imzolamoqda. Buning natijasida oliygoh o'qituvchilari va talabalari kelgusida mazkur mamlakatda bepul malaka oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.







---

## San Mun universiteti bilan memorandum imzolandi

Ayni paytda Koreya Respublikasida bo'lib turgan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti delegatsiyasi vakillari bugun San Mun universitetiga tashrif buyurdi.

Kelishuvga ko'ra, 2024-yil aktyorlik bo'yicha qo'shma ta'lim yo'nalishi ochildi. Unda talabalar ikki yil davomida O'zbekiston, yana ikki yil Koreya Respublikasida tahsil olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu jumladan, San Mun universiteti tomonidan to'rt nafar o'zbekistonlik talaba uchun bepul turar joy hamda stipendiya

ajratiladi.

Tashrif davomida institutimiz delegatsiyasi koreys ta'lim markazi vakillari bilan uchrashib, kelgusida hamkorlik asosida madaniy tadbirlar o'tkazish, mamlakatda o'zbek madaniyati kunlarini tashkil etish borasida kelishuvga erishildi.

San Mun xususiy universiteti 1989-yil tashkil etilgan bo'lib, koreys tilini o'qitish bo'yicha mamlakatda eng yetakchi oliygohlardan biri hisoblanadi.





---

# **O'zDSMI delegatsiyasi Sungshin universiteti axborot-resurs markazi va talabalar turar joyi faoliyati bilan tanishdi**

Ayni vaqtda Koreya Respublikasida bo'lib turgan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rahbariyati bugun Sungshin universiteti axborot-resurs markazi faoliyati bilan tanishdi.

Yetti qavatdan iborat mazkur dargoh Koreyadagi eng yirik markazlardan biri bo'lib, talabalarning dars qilishi hamda o'z ustida ishlashi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

Talabalarning erkin ijod qilishi va ma'lumot olishi uchun darslik va qo'llanmalar ochiq fondga saqlanadi.

Bundan tashqari, markazda kutish zali va dam olish xonalari ham mavjud. Shuningdek, guruh bo'lib hamda yakka tartibda ishkash uchun maxsus xonalar tashkil etilgan.

Axborot-resurs markazida zamonaviy texnikalar bilan jihozlangan bo'lib, talabalar uchun barcha qulayliklar muhayyo qilingan.

Kelgusida oliygohimiz axborot-resurs markazini Koreya metodi asosida tizimli yo'lga qo'yish rejalashtirilmoqda.

Shu bilan birga, delegatsiya universitetning talabalar turar joyiga tashrif buyurib, bu yerda yoshlar uchun yaratilgan shart-sharoitlarni ko'zdan kechirdi.







---

# Sungshin universiteti bilan hamkorlik aloqalari rivojlanmoqda



Xabaringiz bor, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti delegatsiyasi xizmat safari bilan Koreya Respublikasida bo'lib turibdi.

Bugun instituti rektori hamda fakultet dekanlaridan iborat delegatsiya Sungshin universitetiga tashrif buyurib, oliygoh prezidenti Son Kin Yi bilan hamkorlik doirasida amalga oshirilgan ishlarni muhokama qildi.

Muloqot davomida Koreya oliy ta'lim muassasasida amalga oshirilayotgan islohotlarni mamlakatimizda tatbiq etish, oliygohlar o'rtasida turli loyihalarni yo'lga qo'yish borasida fikr almashildi. Shuningdek, istiqbolli vazifalar bo'yicha kelishuvga erishildi. Unga ko'ra, O'zDSMIning yana ikki talabasi Koreyada bir semestr mobaynida bepul tahsil olish

imkoniyatiga ega bo'лади.

Tashrif mobaynida delegatsiyamiz a'zolari mazkur oliygohda tahsil olayotgan O'zDSMI talabasi bilan dars jarayonlari hamda talabalarga yaratilgan shart-sharoitlar borasida suhbatlashdi.







---

## **“Debyut-2023” talaba-yoshlar kinofestivaliga start berildi**

O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi huzuridagi kinematografiya agentligi, O‘zbekiston Kinoarboblari ijodiy uyushmasi, O‘zbekiston milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi hamda O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti, BDKI Toshkent filliali hamkorligida joriy yilning 11–22-dekabr kunlari “O‘zbek kinosi – yangi nigoh” kinooyligini doirasidagi “Debyut” talaba-yoshlar kinofestivaliga start berildi. Unda oliygohimiz yoshlari ham faol ishtirok etmoqda.

“Yangi O‘zbekiston – tinchlik, ma‘rifat, taraqqiyot” shiori ostida bo‘lib o‘tayotgan ushbu festival yurtimizda yosh iste‘dodli kinoijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash, mahoratli talaba yoshlarni aniqlash, ularni rag‘batlantirish milliy kino san‘ati vakillari bilan hamkorlikda kinematografiya sohasini rivojlantirish, yoshlar hamda milliy kinoindustriya vakillari bilan hamkorlikda qo‘shma kino loyihalari yaratishni kengaytirish hamda ushbu sohada ilmiy tadqiqot izlanishlarni amalga oshirish orqali soha rivoji uchun jalb etishni o‘z oldiga maqsad qilgan.

**Kinofestival g‘oliblari quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha maxsus statuetka va esdalik sovg‘alari bilan mukofotlanadi:**

- 1.Eng yaxshi erkak roli;
- 2.Eng yaxshi ayol roli;
- 3.Eng yaxshi ssenariy;
- 4.Eng yaxshi animasion film;
- 5.Eng yaxshi hujjatli film;
- 6.Eng yaxshi ovoz rejissyori;
- 7.Eng yaxshi operatorlik ishi;
- 8.Eng yaxshi rejissyorlik ishi;
- 9.Eng yaxshi film;
- 10.Eng yaxshi maqola.


“Eng yaxshi film” nominatsiyasi g‘olibi bo‘lgan ijodkorlar guruhiga 2024 yilda yaratiladigan to‘liq metrajli badiiy film uchun 500 000 000 (besh yuz million) so‘mlik;


“Eng yaxshi animasion film” nominatsiyasi g‘olibi bo‘lgan ijodkorlar guruhiga o‘n daqiqalik to‘liq metrajli animasion film ishlash uchun 300 000 000 (uch yuz million) so‘mlik;

“Eng yaxshi hujjatli film” nominatsiyasi g‘olibi bo‘lgan ijodkorlar guruhiga to‘liq metrajli hujjatli film yaratish uchun 200 000 000 (ikki yuz million) so‘mlik Davlat granti Kinematografiya agentligi tomonidan ajratiladi. Shuningdek, har bir g‘olib uchun uyali telefon hamda planshetlar sovg‘a qilinadi.











---

## **Dunyoning eng yaxshi 500 oliygohi reytingidan o'rin olgan universitet bilan memorandum imzolandi**

Ayni damda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti delegatsiyasi xizmat safari bilan Koreya Respublikasida bo'lib turibdi.



Bugun mamlakatda kino sohasiga ixtisoslashgan yetakchi oliygohlardan biri hisoblangan Chung-Ang universiteti bilan memorandum imzolandi.



Hamkorlik doirasida talabalar almashinuvi, qo'shma ta'lim dasturlari amalga oshiriladi. Jumladan, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabalari 6 oy mobaynida Chung-Ang universitetida tahsil olish imkoniyatiga ega bo'ldi.



Shuningdek, 2024-yil O'zDSMIda koreys oliygohi bilan hamkorlik doirasida qo'shma ta'lim yo'nalishi ochilishi ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari, kelgusida ikki oliygoh vakillari ishtirokida konferensiyalar, doktorlik dissertatsiyasi himoya ishlarini o'tkazish masalalari muhokama qilindi.



Eslatib o'tamiz, 1916-yil tashkil etilgan mazkur oliy ta'lim muassasasida 30 mingdan ortiq, shu jumladan, dunyoning 80 ga yaqin davlatidan 4 mingga yaqin talaba tahsil oladi. Ulardan 40 nafari o'zbekistonlik yoshlar hisoblanadi.



Universitet QS World University ro'yxatida eng yaxshi 500 oliygohdan biri hisoblanadi. Shuningdek, ushbu dargoh Osiyoning eng yaxshi 50 universitetidan biri sanaladi.

